

I bo'lim.

Men va tabiat





Siz olam go'zalligini qanday tasavvur qilasiz?
Fikringizni ikkita gap bilan izohlang.



Qanday go'zal bu olam

Rauf Tolib

Yasharar, yashnar olam,
Jilo berar o'ziga.
Hattoki maysalar ham
Boshqachadir ko'zimga.

Hadya etadi bog'lar
Menga bir olam qo'shiq.
Shamol meni quchoqlar: –
Yur, – der, – maqsadga
oshiq!

Urilib toshdan toshga,
Oqadi tog' suvlari.
Yo'q, u qalbidan toshgan
Hislarim, tuyg'ularim.

Chorlaydi quchog'iga
Jilva qilib bu hayot.
Yuguraman, chopaman,
Orzudan bog'lab qanot.

Bildim, intilish, izlash –
Hayotimning mazmuni.
Do'stlarim – hamroh,
safdosh,
Yuragimning ustuni.

Ufqlar ochar quchoq,
Ta'zim etar tog'lar ham.
Qanday yaxshi yashamoq,
Qanday go'zal bu olam!



1. She'r sizda qanday his-tuyg'ularni uyg'otdi?
2. Shoir she'rni qanday kayfiyatda yozgan deb o'ylaysiz?
3. She'rda tog'dan oqayotgan suvlar nimaga o'xshatilgan?
4. "Orzudan bog'lab qanot" deganda nimani tushundingiz?
5. "Yuragimning ustuni" iborasida kimlar nazarda tutilgan?
6. "Hadya etadi bog'lar
Menga bir olam qo'shiq", misrasini tushuntirib bering.



jilva – tovlanish, tuslanish
jilo bermoq – husn, ko'rk bermoq
oshiqmoq – shoshilmoq, intilmoq
ufq – yer va osmon tutashgan chegara




She'rni ifodali o'qing.
Qofiyadosh so'zlarni toping.
Rasmni kuzating. Rassom she'rdagi
qaysi misralarni she'rda ifodalay olganini
ayting. Shu misralarni she'rdan topib,
o'qing.



Berilgan rasmlar orasidan she'r muallifini toping.



Bo'g'nlarni bir-biriga to'g'ri bog'lab, so'zlar hosil qiling va she'rdan shu so'zlar ishtirok etgan misralarni o'qing.



She'ni yod oling.